

OLIY TA'LIMDA FANLAR INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH MUAMMOLARI

Fatullayeva Sitora Ilhom qizi

Buxoro muhandislik–texnologiya instituti “Texnologik mashina va jihozlar” kafedrası
stajyor-o‘qituvchisi

fatullayeva1993@list.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’limda o‘quv jarayonini fanlar integratsiyasini ta’minlash asosida tashkil etish talabalarning bilim olish imkoniyatlarini oshirish, fanlar uzviyligini ta’minlash orqali talabalarning fanlarni samarali o‘zlashtirishiga erishish kabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, oliy ta’lim, fanlar integratsiyasi, ishlab chiqarish, uzviylik, mustaqil fikrlash, ta’lim samaradorligi, jarayon.

Respublikamizda kadrlar tayyorlashning yangi milliy modeli kasbiy ta’limni ishlab chiqarish bilan yaxlitlashtirishni kuchaytirishni ko‘zda tutadi. Natijada ta’lim mazmuni va tashkil etish tamoyillarini qayta ko‘rib chiqish zaruriyati paydo bo‘ladi. Yoshlarimiz ongida yuksak ma’naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalqimizning farovonlik yo‘lida fidokorona mehnat qilish, o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo‘lish, o‘zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo‘lish kabi xislatlarni uyg‘otish hozirgi davrning muhim vazifalaridan biri bo‘lmoqda.

Iqtisodiy qayta qurish sharoitlarida mehnat bozorida ma’lum kasblar va mutaxassisliklarga bo‘lgan ehtiyoj doimo o‘zgarib turadi. Kasbiy ta’lim tizimi bu o‘zgarishlarga tezda moslashishi kerak. Buning uchun oliy ta’limning yo‘nalishlari mutaxassisliklari klassifikatorida ikki, uch turdosh sohalardan iborat bo‘lgan kasblar bo‘yicha o‘qitish ko‘zda tutilgan. Bu yoshlarning mehnat bozorida kasbiy harakatchanligini va yangilanayotgan ishlab chiqarish sharoitlarida tezda moslashuvini ta’minlaydi.

Hukumatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishishuga bag‘ishlangan tantanali marosimda, ya’ni Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” – deya ta’kidlagani bejiz emas [1].

Uzluksiz ta’lim tizimining eng muhim jihatlaridan biri uning bosqichlari o‘rtasidagi, fanlararo uzviylik va uzluksizlikni, fanlar integratsiyasini ta’minlashdan iboratdir. Shuning uchun ham ta’limda integratsiya, uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Jumladan, ixtisoslik va mutaxassislik fanlari integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi metodikalarni ta’lim jarayoniga joriy etish o‘quv faoliyatini kafolatlangan natijalarga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotchilar fan va ta’limdagi yangiliklarni o‘zlashtirish jarayonida quyidagi talablarga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydilar:

- jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi – tizimlilik, ya’ni oliy ta’lim tizimi bosqichlari (bakalavriat va magistratura) uzviyligi;
- fanlar bloklari orasidagi uzviylik – ixtisoslik va mutaxassislik fanlarining o‘zaro uzviylik jarayonlari;
- fanlar bloklari ichidagi uzviylik, ya’ni ta’lim jarayonida fanlar mazmuni, o‘tish metodi, texnologiyasi va o‘qitish vositalarining o‘zaro bog‘liqligi [4].

Olimlarning fikrlariga ko‘ra fanlarni integratsiyalash – mavzularning takrorlanmasligi vaqtini tejash, ya’ni kam vaqt sarflab katta hajmdagi materialni o‘zlashtirish imkonini beradi va o‘zida tashkilotchilik vazifasini ham ifodalaydi. Yuqorida ko‘rsatilganlar hisobga olinganda o‘qitishning rentabelligi ham oshadi. Integratsiyalash asoslariga ta’sir etuvchi bir qancha quyidagi asosiy omillar mavjud: fanlar rivojlanishining ob’ektiv qonuniyatlari; ilm-fan taraqqiyotini hisobga olgan holda ta’lim mazmunini belgilash; davlat ta’lim standartlari; ta’lim vazifalari; bilimlar sintezi; ta’lim jarayoni va mazmuni birligi; o‘quv reja va dasturlarining bir-birini o‘zaro belgilashi; moddiy texnik baza; pedagogik va axborot texnologiyalari [2].

Ta’lim integratsiyasi deyilganda, nafaqat bilimlarni predmetlararo bog‘lanishi, balki o‘qitish texnologiyalari, usul va shakllari integratsiyasi ham tushuniladi. O‘quv jarayonida samaradorlikka erishish uchun integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish mumkin. Masalan, o‘quv dasturlaridagi integratsiya (mavzulararo uyg‘unlik); modullashgan integratsiya (turdosh o‘quv fanlariga oid bilim va tushunchalarni tizimlashtirgan holda taqdim etish); integrativ dasturlar (dasturlarda bir necha o‘quv predmeti yoki o‘quv fanlariga oid mavzularni uyg‘unlashtirgan holda taqdim etish); mavzulararo integratsiya (ayni bir kurs doirasida beriladigan o‘quv materiallarini boshqa bir kurs o‘quv materiali bilan uyg‘unlashtirish); mavzularni ketma-ket bayon etish asosidagi integratsiya (o‘quv materialini bayon etishdagi konsentrizm tamoyili, ya’ni oldingi o‘quv materialining keyingisini mazmunan to‘ldirishi); axborot texnologiyalari asosidagi integratsiya (o‘quv fanlarini kompyuter texnologiyalari asosida o‘qitish) [5].

Bugungi kunda oliy va ta’limda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida ixtisoslik va magistraturaning mutaxassislik fanlari orasidagi uzluksizlik va uzviylik to‘liq ta’minlanishi orqali, ta’lim oluvchilarda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini tarmoq ta’lim standartlari va ishlab chiqarish korxonalarining bitiruvchiga qo‘yayotgan malaka talablari darajasida to‘liq shakllantirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, kasbiy ta’lim o‘quv rejalarini va maxsus fanlar dasturlarini bakalavriat o‘quv rejasi va fan dasturlari bilan muvofiqlashtirish va o‘zaro uzviyligini ta’minlash ham asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz oliy pedagogik ta’lim muassasalarida kasbiy-pedagogik ta’lim integratsiyasini ta’minlash kabi o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammo mavjud bo‘lib, bugungi uzluksiz ta’lim talablaridan kelib chiqib, mazkur muammo yuzasidan yig‘ilgan fikr-mulohazalarga ilmiy-amaliy asoslangan aniqliklar kiritish hamda kasbiy-pedagogik ta’lim tizimi uzviyligi va uzluksizligini ta’minlashni amalga oshirish fursati yetib keldi.

O‘tkazilgan dastlabki izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’limda o‘quv jarayonini fanlar integratsiyasini ta’minlash asosida tashkil etish talabalarning bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ularning mustaqil ishlash qobiliyatlarini va amaliy ko‘nikmalarini o‘rganish darajalarini rivojlantirishda ijobiy samara beradi. Shuningdek, bugungi kunda oliy ta’limda ixtisoslik va mutaxassislik fanlari o‘quv adabiyotlari uzviyligini ta’minlash ham muhim masalalardan hisoblanadi.

Demak, oliy ta'limda fanlar uzviyligini ta'minlash orqali talabalarning fanlarni samarali o'zlashtirishiga erishish mumkin. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish bilan birga ixtisoslik va mutaxassislik fanlari integratsiyasiga yo'naltirilgan fan dasturlari asosida o'qitish - o'quv maqsadlariga kafolatli erishishni ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan o'quv fanlari orasida integratsiyani ta'minlash muammosi ham hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Fanlarni integratsiyalash – mavzularning takrorlanmasligi, vaqtni tejash, ya'ni kam vaqt sarflab katta hajmdagi materialni o'zlashtirish imkonini beradi va o'zida tashkilotchilik vazifasini ham ifodalaydi. Yuqorida ko'rsatilganlar hisobga olinganda o'qitishning rentabelligi ham oshadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, fanlar integratsiyasini ta'minlash jarayoni ko'p qirrali masala bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonini tadqiqot qilish va boshqarishni ta'minlaydi hamda fanning maqsadini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarori
2. Grigoryev S.G. Continuity in teaching mathematics to high school students and economics university students. dis. ...candidate of pedagogical sciences. in the form of a scientific report. M. 2000. - P. 31.
3. Zakirov A.K. Forms of integration of vocational education and production. Kasb-hunar talimi. Ilmiy-uslub journals. T. No. 1. 2007. - P. 28.
4. Abdirasilov S., Ikromov X. Tasviriy san'at fanini o'qitishda ta'lim integratsiyasi va innovatsiyasi // Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2008. – № 2. – B. 84.
5. Afanasyeva I.V. Voprosy integratsii nauki i obrazovaniya // Ta'lim texnologiyalari. – Toshkent, 2007. – №4 – S. 24-25.
6. Aliyev I.T. Matematika fani o'quv dasturlarida uzviylik muammosi // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2004. – № 5. – B. 71-76.
7. Olimov, K. T., & Sh, T. Z. (2019). Integration of Special Subjects, Opportunities and Solutions. Eastenr European Scientific Journal, (2), 67-70.
8. Otabayeva F.T. Ta'limda integratsiya muammosi // Kasb-hunar ta'limi. – Toshkent, 2008. № 2. – B. 25.
9. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), 258-261.
10. Sharifovna, T. Z. (2019). Organizational-methodological inter-objective integrations in teaching special disciplines. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
11. Zebo, T. X., & E'zoza, E. (2023). Oliy ta'limda talabalar bilan olib boriladigan o'quv-metodik va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'ziga xos xususiyatlari. Innovations in Technology and Science Education, 2(17), 489-496.

12. Тухтаева З. Ш. Касб-хунар таълимида фанлараро узвийликни таъминлаш методикаси. – 2016.
13. Тухтаева, З. Ш. (2018). Олий таълимда ихтисослик ва мутахассислик фанлар узвийлиги ва интеграциясини таъминлаш муаммолари. Касб-хунар таълим, 4, 21.